

PEDAGOGIK MAHORAT

1
2024



| | | | |
|---|--|---|-----|
| 40. | <i>AHMEDOVA Gulnoza</i> | Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish | 204 |
| 41. | <i>MAXMUDOVA Nodira Alisherovna</i> | Boshlang‘ich ta’limda innovatsion jarayonlar | 209 |
| 42. | <i>QARSHIBOYEVA Gulnoza Abduqodirovna, XUDOYQULOVA Gavxar Sulton qizi, TOJIMURODOVA Sevara Ergash qizi, JASUROVA Nazira Hasan qizi</i> | Kichik maktab yoshidagi bola psixikasining rivojlanish shakllari | 215 |
| 43. | <i>POLVONOVA Charos Bahromqulovna</i> | Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishning dolzarbligi | 221 |
| 44. | <i>KOSIMOVA Manzura Abdulloyevna</i> | Boshlang‘ich sinflarda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasi | 226 |
| FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH | | | |
| 45. | <i>ФАЙЗУЛЛАЕВА Назокам Абдусатторовна</i> | Пути формирования межкультурной коммуникации в обучении иностранному языку | 230 |
| 46. | <i>BOBOKALONOV Odilshoh, ABDURAXMONOV Sayfiddin, XUDOYAROVA Etibor</i> | Pedagogical skills of using VR technologies in teaching Chemistry classes in French | 237 |
| 47. | <i>KILICHEVA Mehriniso Rajabovna, AMONOVA Dilshoda Azamat qizi</i> | Bolalar adabiyotida yosh kategoriyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari | 243 |
| 48. | <i>QARSHIBOYEVA Gulnoza Abduqodirovna, JASUROVA Nazira Hasan qizi, TOJIMURODOVA Sevara Ergash qizi, XUDOYQULOVA Gavxar Sulton qizi</i> | O‘smirlarga xorijiy tillarni o‘qitishning nazariy asoslari | 247 |
| 49. | <i>Qarshiboyeva Gulnoza Abduqodirovna, TOJIMURODOVA Sevara Ergash qizi, XUDOYQULOVA Gavxar Sulton qizi, JASUROVA Nazira Hasan qizi</i> | Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda o‘zlashtirish samaradorligiga erishishning ijobiy tomonlari | 252 |
| 50. | <i>TO‘RAYEVA Sanobar Sulaymonovna</i> | Ona tili darslarida iboralar orqali o‘quvchilarda lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish | 257 |
| 51. | <i>TOG‘AYEVA Umida Shavqi qizi</i> | “Ona tili o‘qitish metodikasi” modulini takomillashtirishda ilg‘or tajribalardan foydalanish | 263 |
| 52. | <i>ATABOYEV Nozimjon Bobojon o‘g‘li</i> | Til korpuslari – chet tilini o‘qitishdagi so‘z qo‘llashga oid statistik aniq baza | 268 |
| ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH | | | |
| 53. | <i>BARATOV Jo‘raqo‘zi Shukurjon o‘g‘li</i> | Uzluksiz ta’lim tizimida fizika o‘qitishda nostandart topshiriqlardan foydalanish | 273 |
| 54. | <i>HAMRAYEV Javlonbek Hoshim o‘g‘li</i> | Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika fanini o‘qitish metodikasi | 278 |

BOLALAR ADABIYOTIDA YOSH KATEGORIYASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kilicheva Mehriniso Rajabovna,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d (Phd)

Amonova Dilshoda Azamat qizi,

Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi 2-bosqich magistranti

dilshodamonova@gmail.com

Ushbu maqolada bolalar adabiyoti namunalari yoshga asoslanib tavsiflangan. Shuningdek, har bir turdagi yosh kitobxon uchun mo'ljallangan kitoblarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning oldida qo'yilgan talab va maqsadlar yoritilgan. Har bir guruhlangan adabiyot turlari, o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoj va talablari tahlil qilingan. Tug'ilgandan to voyaga yetguncha bo'lgan davrdagi kitoblar tasniflanadi. Har bir turdagi kitoblarning nafaqat mazmun-mohiyati, balki tashqi ko'rinishi, muqova qismi, undagi bezaklar, va boshqa e'tiborga olinishi zarur bo'lgan muhim jihatlari muhokama qilingan. Bolalar adabiyotida kitoblarni yoshga asosan tasniflash, yoshning muhim ahamiyati, uning bolalar adabiyotida muhim o'rni haqidagi turli fikrlar tahlil qilinadi. Ota-onalar bolalari uchun mos kitob tanlashda asosan nimalarga e'tibor qaratishlari, qiziqishlardan tashqari ularni kitobdan chekinmasliklari uchun yoshni hisobga olishlari kerakligiga bir necha marta tahlillar asosida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: *yosh, bolalar adabiyoti, rasmi kitoblar, grafik romanlar, easy readers, illustratsiya, yosh kitobxon, sahifa, qattiq muqovali kitoblar (board books).*

ВОЗРАСТНАЯ КАТЕГОРИЯ И ЕЁ ОСОБЕННОСТИ В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

В статье описаны образцы детской литературы на основе возраста читателя. Также освещены особенные черты книг, предназначенных для каждого типа юного читателя, поставленные перед ними требования и цели. Выполнен анализ каждого типа группированной литературы, интересов, потребностей и требований читателя. Проведена классификация книг для периодов от рождения до взрослой жизни. Обсуждены не только содержание каждого типа книги, но и её внешний вид, обложка, оформление и другие важные аспекты, на которые необходимо обратить внимание. Проанализированы различные взгляды на классификацию книг детской литературы по возрасту, значение возраста и его особой роли в детской литературе. На основе анализов неоднократно подчеркнута, на что родителям следует обращать внимание при выборе подходящей книги для своих детей, помимо интересов на необходимость учитывать возраст, чтобы привить любовь к чтению книг.

Ключевые слова: *возраст, детская литература, иллюстрированные книги, графические романы, easy readers, иллюстрации, юный читатель, страницы, книги с жёстким переплётом.*

AGE CATEGORY AND ITS SPECIFIC FEATURES IN CHILDREN'S LITERATURE

In this article, Children's literature is classified based on age. Also, this piece of work shed light on books for all age groups, their particular features, objectives. Types of books for each age group and their requirements are analyzed. Not only context and meaning of the books, but also cover page, their illustrations, decorations and other vital aspects of the books are discussed. There are some analyses on classification of books according to age, role of age in children's literature. It is also emphasized that parents should choose appropriate books for their children depending on age in order not to withdraw them intriguing literary world.

Key words: *Age, children literature, picture books, Graphic novels, easy readers, illustrations, young reader, page, board books.*

Kirish. Bolalar adabiyoti — bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan o'zbek bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, matal, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyotini ikki guruhga: bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan hamda aslida bolalarga mo'ljallanmagan, biroq keyinchalik bolalar adabiyoti namunasiga aylangan asarlarga ajratish mumkin.

N.Anderson bolalar adabiyotiga quyidagicha ta'rif beradi: “Hajviy kitoblar, ertak kitoblar, shuningdek, lug'atlar, ensiklopediyalar va shuningdek, badiiy bo'lmagan adabiyot namunalarini ham bolalar kitoblari deb atash mumkin” [2,58].

Kattalar adabiyoti singari bolalar adabiyoti ham quyidagi masalalarni o'z oldiga qo'yadi: bolalarning yoshi, ularning saviyasi, qiziqish va intilishlariga qarab ta'lim-tarbiya berish, qiziqishlarini rivojlantirish, ulardagi yaratuvchanlikni qo'llab-quvvatlash va boshqalar. Bolalar uchun yoziladigan har qanday kitob uning qiziqishi haqida bo'lishidan tashqari uning yoshiga ham mos bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qish odati bolaning ta'lim olishiga asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, og'zaki muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi. Bolalar erta yoshda ko'plab asosiy ko'nikmalarni o'rganadilar. Ba'zi bolalar 5 yoshdan boshlab o'qishni boshlashlari mumkin, ba'zilari esa 4-sinfda ham o'qish va yozishda qiynalishi mumkin. Bu yerda yosh muhim omildir. Bolalar o'sib ulg'aygan sayin, ular ma'lum darajadan yuqori o'qish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu daraja yoshga mos o'qish deb nomlanadi [18,5].

“Bolalar adabiyoti namunalari bolalarga o'z ona tillarining go'zalligini ranglar, chiziqlar va so'zlarning estetik ifodasi orqali anglatuvchi ilk vositalardan biri” deb yozadi Nodelman P. o'zining “Words about pictures: The narrative art of children's picture books” asarida [5,75]. Shu asnoda, bolalar adabiyoti ularning ong darajasi uchun mos bo'lgan dunyoni anglash va tasavvur qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar adabiyoti bu vazifani mukkamal bajarishi uchun kitoblar ham bolalarning yoshiga hamda qiziqishlariga mos bo'lmog'i lozim. Chunki yosh bolalardan, ayniqsa, 3-4 yoshli boladan o'qib berishini talab qilish, yoki unga rasmlidan ko'ra matnli kitob olib berilishi bolani zeriktirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, bolalar adabiyotining atrof-olamni anglash, hayotga va o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, tevarak atrofdagilar bilan iliq munosabatda bo'lish kabi vazifalarni bajarishiga to'stinlik qiladi. Bola kitobining yosh va darajaga nomuvoqifligi kutilayotgan ijobiy natijalarni bermaydi.

Ilk yoshdagi kitoblar quyidagi sifatlarni o'z ichiga olmog'i lozim:

- Bolalar tabiati qiziquvchanlik, sarguzasht, tasavvur, dinamika, o'yinlarga ko'proq moyil bo'ladi, lekin maslahat va buyruqlarga bo'sunmaydi.

- Bolalar mehr, ishonch, kimdir tomonidan g'amxo'rlik qilinish, yangi tajribalar bilan shug'ullanib ko'rish, erkinlik, yaratuvchanlik, san'atni sevishadi.

- Bolaning tilga oid ko'nikmalari madaniy va ijtimoiy jihatdan shakllangan lug'at boyliklari, og'zaki suhbatlar, chizilgan yoki bo'yalgan qisqa matnli rasmlar orqali shakllanadi.

Agar kitob o'quvchi yoshi va darajasiga mos bo'lsa, yuqoridagi kitob uchun keltirgan xususiyatlar o'z samarasini beradi.

Bolalar kitoblari badiiy (fiction) yoki badiiy bo'lmagan (non-fiction) janrlarning bir qismi bo'lishi mumkin. Biroq, bu kitoblar o'quvchining maqsadli yoshi va boshqa tafsilotlar, masalan, so'zlar soni yoki mavzu bo'yicha tasniflanadi [19,6].

“Bolalar kitoblari qiziqarli bo'lishi kerak, chunki ular bolalarga nafaqat o'qishni, balki o'z dunyosini kechishni o'rganishga yordam beradi” [19,7].

Tahlil va natijalar. Bolalar kitoblari yuqorida eslatilgan umumiy xususiyatlardan tashqari, har bir yosh guruhi o'rtasida alohida belgi, talab, e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlar mavjud.

0-3 yoshgacha: Kichkintoylar uchun kitoblar

Kichkintoylar kitoblari 0-3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bo'lib ularda ko'pincha qiziqarli rasmlar va qofiyali she'rilar mavjud. Ular, shuningdek, "taxta kitoblari"(board books) sifatida ham tanilgan. Bunday kitoblar juda yosh bolalarni o'qish dunyosi bilan tanishtirishning eng zo'r usuli sanaladi hamda quyidagi asosiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- Ko'plab rasmlar bilan yorqin rangga ega bo'lish;
- Maksimal 100 ta so'zni o'z ichiga oladi;
- Harflar, raqamlar va shakllar kabi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;

Bunday turdagi kitoblarga eng ko'p sotilgan That's Not My seriyasi, sensorli elementlarga to'la va Rod Kempbellning “Dear Zoo” (Qadrlil hayvonot bog'i) misol bo'la oladi.

Bu davrda bola va kitob o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri o'zaro ta'sir ko'p jihatdan kitobning dizayn va bezak xususiyatlariga bog'liq [7,53]. Bu muddat oralig'ida bolalar o'zlari atrofida ko'rgan manzara, chizma, rasmlar orqali ularning ko'rish sezgisi yaxshilana boradi va tilga oid ko'nikma bilan emas, balki ko'rish (visual) mahoratlarini orqali aloqaga kirisha boshlashadi. Shu sababli bola ota-onasi to'g'ri tanlay olgan kitobi bilan muloqotga kirisha boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, kitobning o'lchami, muqovaning sifati, rang-barangligi, ranglarning yorqinligi, sahifani tashkil etgan elementlar bolalarning e'tiborini jalb qiladi va turli qiziqishlarini orttiradi. Rasmlardagi xarakterlar ham ko'rinish jihatidan ham e'tibor tortadigan bo'lishi kerak. Bu davrda bolalarni juda qisqa bo'ladigan e'tibori yorqin ranglar va harakatlar bilan tortadi [7,55]. Kitobdagi

xarakterlarda yuz ifodalariga katta urg'u berilmaydi, chunki ular bolalarda salbiy taassurot qoldirishi oson, aksincha, yorqin, ochiq ranglar eng muqobil tanlovdir.

2–5 yosh: Dastlabki rasmlar kitoblari

Erta suratli kitoblari 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. Ular asosan hikoya qilish uchun rasmlardan foydalanadilar va ko'pincha hamdardlik, kechirimlilik va mehribonlik kabi axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq hayotiy saboqlar bilan o'rtoqlashadilar. Bu kitoblari qiziqarli bo'lishi kerak, chunki ular bolalarga nafaqat o'qishni, balki yangi narsalarni o'rganishga yordam beradi [9,45].

Bu davrda bolalar bir narsani boshqasidan farqlay boshlaydilar. Endilikda juda faol(hyperactive), hamma narsaga tegishni xohlaydigan bola biroq bo'lsa-da tildan foydalana oladi. Bolalar rasmlar ko'rsatgan, tasvirlangan obyektlarni tanib boshlaydilar. Ular hamma narsaga tegib ko'rishadi, ko'zi tushgan har bir obyekt ular uchun qiziqarli [13,34]. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar kitoblardagi rasmlarda predmetlar aniq ravishda tasvirlanishi kerak.

Bundan tashqari kitoblari bolalarning turli xil munosabatlariga chidamli bo'lishi uchun kitob muqovasi yoki sahifalari karton(cardboard) yoki yuqori sifatli qog'ozdan bo'lishi zarur, chunki qiziquvchanligi yuqori bo'lgan bu davrda bolalarda vaqti-vaqti bilan kitobni yirtib ko'rish, tinimsiz bir sahifadan boshqasiga o'tish, kitobni to'ntarib ko'rish xohishlari paydo bo'ladi.

5-8 yosh: Rasmlar kitoblari

Rasmlar kitoblari adabiyotdagi eng jozibali va ahamiyatli janrlardan biridir. Rasmlar kitoblari 5 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun nashr etiladi va ular asosan hikoyani yetkazish uchun rasm va illyustratsiyalar bilan to'ldiriladi. Rasmlar kitoblari odatda bitta bosh qahramon atrofida aylanadi. Rasmlar kitoblarning umumiy xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- To'liq sahifali rasmlar va minimal so'zlardan foydalanish (250 dan 1000 so'z gacha).
- 32 sahifadan oshmasligi kerak.
- Bosh qahramon sifatida bola yoki hayvonga ega bo'lish.
- Oxirigacha hal qilingan har qanday muammo bilan oddiy hikoyani aytib berish [16,23].

Julia Donaldsonning "Gruffalo" va Oliver Jeffersning "Lost and Found" (Yo'qotilgan va topilgan) kitoblari ajoyib rasmlarni hikoya bilan birlashtirgan juda muvaffaqiyatli rasmlar kitoblardir.

5–8 yosh: Birinchi bobli kitoblari va grafik romanlar

Easy Readers (oson o'qiladigan kitoblari) shuningdek, Emerging Reader yoki Beginning Reader kitoblari deb ataladi, ular endigina mustaqil o'qishni o'rganayotgan, odatda besh yoshdan sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar uchundir. Sahifa uzunligi odatda 30 dan 60 sahifagacha, maksimal so'zlar soni 3500 so'zdan iborat. Odatda, u rasmlar kitoblardan ko'ra ko'proq matn va har bir sahifada rasmlari yoki hech bo'lmaganda muqobil sahifalari bo'lgan yosh kitobxonlarga mo'ljallangan oddiy matnni o'z ichiga oladi. Kitoblari so'zlar va rasmlar bilan aytilgan qisqa, murakkab bo'lmagan hikoyalarni qamrab oladi, ammo rasmlar ikkinchi darajali va hikoyani tushunish uchun zarur emas. So'zlar sodda, jumlar qisqa, harakatlar va dialoglar ko'p. Mavzular yengil va bitta asosiy g'oyaga, odatda ta'limga qaratilgan.

Bu muddatda bolalarning diqqat davomiyligi oldingi yosh guruhlariga qaraganda ancha oshadi. Nimadir yangilikni kashf qilishda yuqori moyilligi bo'lgan bolalar uchun kitoblarning muqovasidan tortib, oxirgi sahifasigacha tasvir va ifodalar uyg'unlashmog'i lozim. Birinchidan, muqovaning o'zi bolada kitobni o'qishda qiziquvchanligini oshirishi, "nima uchun, qanday qilib" savollarini uyg'otmog'i lozim. Ikkinchidan, muqova bolalar uchun sirli ko'rinib, bu sirni ochish uchun kalitlar ham bo'lishi kerak. Uchinchidan yuqorida eslatilgan yosh guruhlari kabi bu davrda ham kitob muqovasida cardboard(karton) maqul ko'riladi.[8,24]

Endilikda tashqi tasvir, bezak va rasmlarning yordami bilan bolalar mazmunga ham e'tibor qarata boshlaydilar. Ularning kitoblari bilan aloqani yaxshilashida ota-onalarning hissasi katta. Chunki endi bolalar kitobdagi matnga qiziq boshlaydi, otasi yoki onasidan uni o'qib berishi, ertak yoki hikoyadagi xarakterlarga biroz qiziq boshlaydi. Bu ularning tilga oid bo'lgan ko'nikmalari uyg'onayotganidan darakdir. Ota-onasi o'qib bermasidan syujet haqida taxmin qilishni ham boshlashi bu ularning aqliy mahoratlarining ham yuksalayotganini ko'rsatadi.

8-11 yosh: O'rta sinf romanlari va grafik romanlar

O'rta sinf kitoblari 8 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun nashr etiladi va odatda 100-150 sahifani tashkil qiladi. Hikoyalar biroz ko'proq murakkablikni, ikkinchi darajali syujetlarni va kattaroq belgilarni ko'rsatadi. Bolalar grafik romanlar yordamida kuchli til ko'nikmalarini va so'z boyligini rivojlantiradilar. Grafik romanlar rasmlar kitoblardan faqat matnli kitoblarga o'tayotgan yosh kitobxonlar uchun mukammal ko'prik vazifasini bajaradi [16,65].

So'nggi bir necha yil ichida grafik roman atamasi asosiy ommaviy axborot vositalarida komiks uslubida yozilgan va tasvirlangan to'liq metrajli hikoyalar uchun jozibali ibora sifatida ishlatilgan. Ushbu

formatda odatda ramkali rasmlar, nutq balonlari va panellardan foydalaniladi. Bu janr bolalar kitoblari o'rtasidagi ko'prikdir. Ko'pincha ularda illyustratsiyalar yo'q [20,5].

Bu davrda bola o'qishni o'rgangan bo'ladi. Bir bo'g'indan ko'p bo'lgan so'zlarni aniq o'qiy va talaffuz qila oladi. Ular, shuningdek, o'qishdagi maqsadlari ham turlicha bo'la boshlaydi, masalan, maroq yoki dam olish uchun, nimadir yangi narsa o'rganish uchun, turli ko'rsatmalarni o'qib tushunish uchun. Ular, shuningdek, o'qiyotgan narsasini janrini ham farqlay boshlaydi (she'r, ertak, topishmoqlarni tezda farqlay oladi). O'qiganini gapirib berishi, syujetni, xarakterlarni, va sahnani bemalol tasvirlashi mumkin, eng qiziqarlisi eng so'nggida o'z xulosasini ham berishi mumkin [8,35].

Endilikda kitoblardagi mavzuga bo'lgan urg'u oshadi. Ko'pincha maktab, oila, yaxshilik, yomonlik kabi mavzular yoritiladi. Yovuzlik, sevgi mavzularidan qochiladi.

12-18 yosh: Yosh kattalar (YA-Young Adults) romanlari va grafik romanlari

Yoshi kattalar kitoblari 12 yoshdan oshgan bolalar uchun mo'ljallangan. Bunday kitoblar odatda murakkab bo'lib, ular yetuk mavzular va o'smirlarning tashvishlari bilan shug'ullanadi. So'zlar soni 50 000 dan 75 000 gacha. Grafik roman asl hikoyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu kitoblar badiiy yoki badiiy bo'lishi mumkin, o'quv va qiziqarli bo'lishi mumkin va ular o'quvchini hissiy va intellektual jalb qiladi.

Bu davrda endi bolalarning lug'at boyliklari oshib, turli murakkab matnlarni ham tushuna boshlashadi. O'qigan adabiyotidagi voqealar rivoji, xarakterlarni tahlil qila oladi. Mavzu, kitob janri, yozuvchining yozish uslubi ular uchun ahamiyatli bo'lib, shu omillarga asosan ular o'qiydigan kitoblarini tanlashadi. Tildagi murakkab so'zlar, ko'chma ma'noda qo'llash, iboralarning ham mag'zini chaqa olishadi. Bu davrning yana bir o'ziga xosligi shundaki, o'quvchi kimningdir nazoratisiz o'zi o'qiydi (self-study). Yoshi katta bo'lgani sari bunga moyillik oshadi. Albatta bu ularning dunyo qarashi, fikrlash qobiliyati, aqliy mahoratlarini oshiradi.

Xulosa. Kitob tanlashda bolalarning tabiati, qiziqishi, ehtiyoji, tilga oid ko'nikmalarining darajasi, aqliy mahoratlariga e'tibor qaratish muhim rol o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda bolalar yoshining hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bu bolada kitobga, adabiyotga, o'qishga va buning barobarida ilm olishga bo'lgan estetik did, qobiliyat, xohishni uyg'otadi.

Adabiyotlar:

1. Abbott, R., Child development and the brain: An introduction. Bristol: Policy Press. 2015
2. Anderson, N. A. Elementary children's literature, infancy through age 13. New York: Pearson education. 2013.
3. Arizpe, E., Children reading picture books: Interpreting visual texts. New York: Routledge. 2016.
4. Emer O'Sullivan, Comparative Children's Literature, New York, 2005
5. Engel, S. Children's need to know: Curiosity in schools. Harvard educational review. 2011.
6. Hillman, J. Discovering children's literature. NJ: Prentice-Hall.2002.
7. Norton, D. E., Through the eyes of a child: An introduction to children's literature. Pearson. 2010
8. Dilafuz Khodjaeva, & Gulcheyra Hoshimova Mashraf qizi. (2022). The Characteristics of Rhetorical Questions in the Uzbek Language. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 9, 49.
9. Khodjaeva, D. I., & Saidova, Z. T. Dependent taxis: semantic features and methods of expression in english. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in>, ISSN, 2278-4853.
10. Kilicheva M. R. Poetics of works on loneliness in american and uzbek literature //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – T. 5. – №. 56. – C. 56-64.
11. Kilicheva M. R. Composition of “Jane eyre” and “Wide sargasso sea” //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2023. – T. 12. – №. 5. – C. 74-79.
12. Kilicheva M. R. Artistic-psychological description and classification of loneliness in literature //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 997-1001.
13. Kilicheva M. R. Artistic-psychological description and classification of loneliness in literature //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 997-1001.